



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 160-170 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KORPORATIV TUZILMALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY-INVESTITSION STRATEGIYALARNING AHAMIYATI



Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada korporativ tuzilmalar faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy-investitsion strategiyalarning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda “Agro Finans Lizing” AJ misolida investitsion strategiyalar samaradorligi WACC, DCF, IRR va zamonaviy portfel nazariyasi asosida baholangan. Shuningdek, ESG tamoyillari, risklarni diversifikatsiyalash, raqamli moliyaviy texnologiyalar hamda DESTS tizimining korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy-investitsion strategiya, korporativ boshqaruv, investitsion faoliyat, WACC, DCF, ESG, risk-menejment, diversifikatsiya, investitsion portfel, DESTS.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты финансово-инвестиционных стратегий в развитии корпоративных структур. На примере АО «Agro Finans Lizing» проведена оценка эффективности инвестиционных стратегий с использованием моделей WACC, DCF, IRR и современной портфельной теории. Кроме того, научно обоснована роль ESG-принципов, диверсификации рисков, цифровых финансовых технологий и системы DESTS в повышении эффективности корпоративного управления.

Ключевые слова: финансово-инвестиционная стратегия, корпоративное управление, инвестиционная деятельность, WACC, DCF, ESG, риск-менеджмент, диверсификация, инвестиционный портфель, DESTS.

Annotation: This article examines the theoretical and practical aspects of financial and investment strategies in the development of corporate structures. Using the example of “Agro Finans Lizing” JSC, the effectiveness of investment strategies was assessed based on WACC, DCF, IRR, and Modern Portfolio Theory approaches. The study also substantiates the importance of ESG principles, risk diversification, digital financial technologies, and the Dynamic Enterprise Strategic Transformation System (DESTS) in improving corporate governance efficiency and long-term financial sustainability.

Key words: financial and investment strategy, corporate governance, investment activity, WACC, DCF, ESG, risk management, diversification, investment portfolio, DESTS.

Kirish

Jahon amaliyotida kompaniyalar moliyaviy-investitsion faoliyatini rivojlantirish orqali kapital oqimini liberallashtirish tobora muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Keyingi yillarda xalqaro moliya bozorining dinamikasi va iqtisodiy jarayonlarning

prognozini murakkablashib borayotganligi sharoitida kompaniyalar investitsion-moliyaviy strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash kompaniyalar boshqaruv organlari oldida turgan ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro amaliyot tajribasi ko'rsatishicha, bugungi kunda kompaniyalar tomonidan moliyaviy-investitsion strategiyalarini ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga yirik kompaniya va korporatsiyalar rivojlanish strategiyalarining ustuvor yo'nalishlari sifatida raqamli moliya, biotexnologiya va moliyaviy texnologiya sohasiga sarmoyalarni kuchaytirish, blokcheyn, AI, Big Data asosida moliyaviy tizimlarni modernizatsiya qilish, raqamli valyutalar (CBDC, Stablecoin) bilan operatsiyalar uchun infrastruktura yaratish kabilar hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham korporativ tuzilmalarni transformatsiya qilish, ularning investitsion faolligini oshirish, korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-168-sonli qarorining [1] qabul qilinishi davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda xususiy sektor ulushini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Mazkur qarorda davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, zamonaviy korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish hamda xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, korporativ tuzilmalar faoliyatida investitsion loyihalarni samarali moliyalashtirish, IPO va korporativ obligatsiyalar orqali uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish, ESG tamoyillari asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda raqamli moliyaviy boshqaruv mexanizmini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur holatlar korporativ tuzilmalar faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy-investitsion strategiyalarning nazariy-uslubiy asoslarini tizimli tadqiq etish, investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlar asosida strategik boshqaruv tizimini rivojlantirishning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bu kabi jihatlar esa, korporativ tuzilmalarda moliyaviy-investitsion strategiyalarni shakllantirish va ularni raqamli iqtisodiyot sharoitida samarali amalga oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Xalqaro amaliyot tajribalarini o'rganish natijalari ko'rsatadiki, "strategiyalarni ishlab chiqish" o'tgan asrning boshlaridan bosqichma-bosqich rivojlana boshlandi. Xususan XX-asr boshlariga kelib strategik rejalashtirish biznesda faol qo'llanila boshlandi. Birinchilardan bo'lib Genri Ford o'zi tomonidan ta'sis etilgan avtomobil kompaniyasini yaratish va rivojlantirish uchun strategik rejalashtirishdan foydalangan. Ford avtomobillarni ommaviy ishlab chiqarish strategiyasini ishlab chiqib, natijada mahsulotlar narxini sezilarli darajada pasaytirishga erishdi hamda mahsulotlarni keng ommaga tanishtirish imkonini berdi. Uning yondashuvi konveyer ishlab chiqarishni joriy etish,

qismlarni standartlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishni o'z ichiga olgan.

Moliyaviy strategiya mexanizmi kompaniyaning bozor bahosini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga moliyaviy faoliyatni tizimli tahlil qilish uchun foydalaniladi. Moliyaviy strategiyada belgilangan ustuvor vazifalarning real holatdagi (haqiqatdagi) ijrosini ta'minlanishi asosida kompaniyaning istiqbolli rivojlanish tendensiyalariga baho berish mumkin. Moliyaviy strategiya biznesni raqobatbardoshligiga erishish va uni qo'llab-quvvatlash hamda kompaniyani xalqaro miqyosidagi tashkilot sifatida rivojlantirish yo'lini ifodalaydi. Moliyaviy strategiyalar - bu korporativ natijalarga erishish uchun moliyaviy menejmentni yanada yaxshilash va optimallashtirishga qaratilgan maqsadlar, modellar yoki muqobil tanlovlar [2]. Borisova va Sichevlarning fikriga ko'ra, moliyaviy strategiya mazmunan ikkita komponentni o'z ichiga olishi mumkin: maqsadli moliyaviy strategiya va kapitaldan foydalanish bo'yicha moliyaviy strategiyasi. Ushbu strategiyalarning har biri o'z mazmuni va xususiyatlariga ega. Xususan, maqsadli moliyaviy strategiyani kompaniya bozor qiymatini oshirish strategiyasi, (mahsulot) sotuv hajmini oshirish strategiyasi, foydani maksimallashtirish strategiyasi sifatida yondashish mumkin. O'z navbatida, kapitaldan foydalanish bo'yicha moliyaviy strategiya o'z-o'zini moliyalashtirish strategiyasi va moliyaviy investitsiyalar strategiyasi sifatida qaraladi [3]. I.A.Blankning fikriga ko'ra, moliyaviy strategiya — bu uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarni shakllantirish, ularga erishishning eng samarali usullarini tanlash orqali, moliyaviy faoliyat va moliyaviy munosabatlarini rivojlantirishning barcha asosiy yo'nalishlarini ta'minlaydigan, tashqi muhit sharoitlari o'zgarganda moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish yo'nalishlarini moslashtira oladigan korxonalar funksional strategiyasining eng muhim turlaridan biri [4]. Umuman olganda, Blank tomonidan zamonaviy moliyaviy menejment, moliyaviy resurslarni boshqarish va investitsion strategiya yo'nalishlariga doir qator ilmiy asarlar nashr etilgan bo'lib, mazkur tarafdagi moliyaviy strategiyaning deyarli barcha xususiyatlari qamrab olinmoqda, desak ham bo'ladi. Yuqoridagi boshqa tariflarga qo'shilgan holda olim tomonidan moliyaviy strategiyaning bosh masalalaridan biri sifatida tashqi muhitdagi o'zgarishlarga mos va tezkorlik bilan "javob" bera olishi alohida qayd etilmoqda.

Rus iqtisodchi olimi I.P. Hominich o'zining "Moliyaviy risklarni boshqarish" asarida moliyaviy strategiyani kompaniyaning moliyaviy resurslarini muvofiqlashtirish, taqsimlash va ulardan foydalanish orqali korporativ missiya doirasida belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan harakatlarning umumlashtirilgan modeli sifatida yondashadi [5]. Shu bilan birga olimning ta'kidlashicha, moliyaviy strategiya ham asosiy ham funksional strategiya sifatidagi rolni bajaradi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, moliyaviy strategiya boshqa funksional strategiyalarni amalga oshirishni ta'minlaydigan bazaviy xususiyatga ega bo'lgan boshlang'ich "nuqta" hisoblanadi. Olim tomonidan moliyaviy strategiyani funksional vazifalarni amalga oshiruvchi mexanizm yoki algoritmlarning umumiy majmui sifatida alohida model sifatida yondashish mumkinligi qayd etib o'tilmoqda. F.Saidnazarov tomonidan korxonalarda moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga bag'ishlangan ilmiy ishlanmalarida keltirilishicha "har qanday iqtisodiy tizimda raqobat muhim hisoblanadi. Ayniqsa bozor

munosabatlari sharoitida korxonalar bozorda muqim joy olishi uchun ular o'z strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bular orasida moliyaviy strategiya hal qiluvchi rolga ega bo'ladi. Korxonalar moliyaviy strategiyalarini to'g'ri ishlab chiqishi va uni amalga oshirishi, korxonalar mablag'larini optimal boshqarishni ta'minlaydigan, bu korxonalar raqobat muhitida bozor tavakkalchiligi sharoitida "yashab qolish" qolaversa, rivojlanishga katta omil bo'ladi. Moliyaviy strategiya har qanday korxonaning yuqori samarali moliyaviy faoliyatini ta'minlashda ulkan rol o'ynaydi, chunki, bu uning barcha asosiy faoliyat yo'nalishlariga ta'sir qiladi. U korxonaning moliyaviy resurslardan foydalanishning mumkin bo'lgan yo'nalishini shakllantirish, jalb qilish va belgilashni o'z ichiga oladi" [6]. Yuqorida xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan berilgan tariflar va ilmiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda biz tomondan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy strategiyasi tushunchasiga doir quyidagi xulosalar va mualliflik tarifi shakllantirildi:

xalqaro amaliyotda "moliyaviy-investitsion strategiya" tushunchasiga doir yagona tarif mavjud bo'lmasa, olimlar tomonidan berilgan tariflarning xususiyatlari va tasnifiy jihatlari mazmunan o'zaro bir-biriga yaqin hisoblanadi;

aksariyat olimlar va ekspertlar tomonidan bildirilgan tariflarda, moliyaviy-investitsion strategiya kompaniyaning moliyasi va kapitalini boshqarish usullarining majmui yoki instrumenti ekanligi to'g'risidagi xulosaga kelingan;

moliyaviy strategiyaning asosiy maqsadi sifatida tashqi omillarni tizimli tahlil qilish asosida mavjud kapital va aktivlardan samarali foydalanish asosida foydani maksimalashtirish hisoblanadi;

moliyaviy-investitsion strategiyalar jamiyatning asosiy va investitsion faoliyatga doir chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqadi va unga erishishga doir vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshiradi;

kompaniya faoliyatiga ta'sir etuvchi moliyaviy risklarni prognoz qilish orqali istiqbolli loyihalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlaydi.

Moliyaviy-investitsion strategiya aksiyadorlik jamiyatlarining istiqboldagi moliyaviy barqarorligini ta'minlash, asosiy va investitsion faoliyatini uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tashqi omillarni tahlil qilish asosida kapital tuzilmasini optimallashtirishga doir qarorlar qabul qilish tizimidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish hamda strategik tahlil usullaridan foydalanildi. Moliyaviy-investitsion strategiyalar samaradorligini baholashda zamonaviy portfel nazariyasi (Modern Portfolio Theory – MPT), kapital qiymatini baholash modellari (WACC, CAPM, DCF), risklarni baholash va boshqarish instrumentlari (diversifikatsiya, hedjirlash, VaR) hamda investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni boshqarishda to'g'ri strategiyani tanlash va samarali qarorlar qabul qilish dolzarb yo'nalishlardan biri sanaladi. Xalqaro amaliyot tajribalari ko'rsatishicha, kompaniyalar tomonidan samarali va mukammal ishlab chiqilgan moliyaviy strategiyalar kompaniya moliyaviy natijalarini 20 foizdan

ko'proqqa oshirishga ega bo'ladi. Aksincha, samarasiz va tizimli tahlil natijalariga asoslanmagan qarorlar qabul qilish kompaniyaning tegishli mutaxassisleri tomonidan ko'p ish kunlarini va millionlab ortiqcha mablag'larni samarasiz sarflanishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda ko'plab ilmiy tadqiqotlarni tadqiq qilar ekanmiz, moliyaviy investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda foydalaniladigan instrumentlar va metodlar borasida turlicha yondashuvlar mavjud. Fikrimizcha, kompaniyalar tomonidan u yoki bu turdagi instrument va metodlardan foydalanish tashqi iqtisodiy muhitning rivojlanganlik darajasi va moliyaviy resurslarni jalb qilish borasida imkoniyatlarning mavjudligidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Moliyaviy-investitsion strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nazariy modellardan va amaliy instrumentlardan foydalaniladi. Strategik qarorlarni qabul qilishda moliyaviy menejerlar va investorlar zamonaviy moliyaviy nazariya (masalan, portfel nazariyasi), risklarni baholash va boshqarish instrumentlari (diversifikatsiya, hedjning, VaR va b.), shuningdek kapital qiymatini baholash modellari (CAPM, WACC, DCF va h.k.)ga asoslanadi (1-jadval).

1-jadval

Strategik qarorlar qabul qilishda foydalaniladigan ilmiy nazariyalar¹

Yo'nalish	Asosiy Nazariya/Model	Qisqacha Tavsifi
Strategik qarorlar	Zamonaviy portfel nazariya (MPT)	Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish orqali risk va daromad o'rtasidagi optimal nisbatni aniqlash.
Risklarni baholash va boshqarish	Diversifikatsiya	Aktivlarni turli soha va segmentlarga taqsimlash orqali umumiy riskni kamaytirish.
	Hedjirlash	Derivativ instrumentlar (opsion, forward, futures) orqali moliyaviy risklardan himoyalash.
	VaR (Value at Risk)	Ma'lum bir ehtimollik darajasida maksimal mumkin bo'lgan yo'qotishlarni aniqlash usuli.
Kapital qiymatini baholash	CAPM (Capital Asset Pricing Model)	Moliyaviy aktivlarning kutilayotgan daromadligini tizimli risk (beta) asosida hisoblash.
	WACC (Weighted Average Cost of Capital)	Kompaniyaning umumiy kapitalini (qarz va o'z kapital bilan birga) o'rtacha qiymatini aniqlash.
	DCF (Discounted Cash Flow)	Kelajakdagi kutilayotgan pul oqimlarini bugungi kundagi qiymatga keltirib moliyaviy aktiv yoki kompaniya bozor qiymatini baholash.

Zamonaviy investitsiya portfeli nazariyasi (Modern Portfolio Theory - MPT) investitsiyalarni tanlashda ularning umumiy kutilayotgan daromadini maksimal darajada

¹ Muallif tomonidan tuzildi.

o'shish uchun, qabul qilinadigan risklilik darajasini hisobga olgan holdagi amaliy metod hisoblanadi. Ushbu matematik asoslangan yondashuv sarmoyalarni shunday portfel shaklida tuzishni nazarda tutadiki, u belgilangan umumiy risklilik darajasi uchun kutilayotgan daromadni maksimal darajada ta'minlaydi. Xalqaro amaliyot tajribalari ko'rsatishicha, moliyaviy – investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda foydalaniladigan muhim instrumentlardan biri risklarni baholash va boshqarish hisoblanadi. Biz tomondan taqdim etilgan 1-jadvalda risklarni baholashda uchta asosiy yondashuvni keltirib o'tganmiz. Bulardan birinchisi diversifikatsiya bo'lib, bu investitsiya riskini kamaytirish maqsadida investitsiya aktivlarini turli sohalar, geografik hududlar yoki aktiv turlari bo'yicha taqsimlash strategiyasidir. Portfel tarkibidali bir aktiv bo'yicha zarar boshqasidagi foyda bilan qoplanishi mumkin, degan g'oyaga asoslanadi. To'liq diversifikatsiyalangan portfel orqali noaniq risklar minimal darajaga keltirilsada biroq tizimli risk (bozor risklari) to'liq bartaraf etilmaydi. Ikkinchi yondashuv, hedjirlash usuli bo'lib bu usul moliyaviy risklarni minimallashtirishga qaratilgan usul hisoblanadi. Mazkur yondashuvda derivativ instrumentlar (futures, options, forward shartnomalar)dan keng foydalaniladi. Uchinchi yondashuv esa, VaR (Value at Risk) usuli bo'lib, VaR investitsion portfel yoki moliyaviy aktivning ma'lum ehtimollik va vaqt oralig'ida yuz beradigan maksimal yo'qotishini baholaydi. Ilmiy tadqiqotlarda VaRni hisoblash quyidagi usullardan keng foydalaniladi: tarixiy modellashtirish (Historical Simulation), variatsiya va kovariatsiya (Variance-Covariance) hamda Monte-Karlo simulyatsiyasi (Monte Carlo Simulation). 1-jadvalda strategik moliyaviy qarorlar qabul qilishning muhim yo'nalishlari sifatida kapital qiymatini baholash modelini keltirib o'tganmiz. Bugungi kunda mamlakatimizdagi ilmiy tadqiqotlar bo'yicha ushbu masala bosqichma-bosqich o'rganilib amaliyotda foydalanishga doir takliflar ishlab chiqilmoqda mavjudlari esa takomillashtirilmoqda. Albatta strategik qarorlar qabul qilishda ushbu modellar har tomonlama muhim ahamiyatga ega bo'lib, kompaniya kapitalining qiymatini aniqlash orqali kelgusida daromadlilik darajasi bilan solishtirish, qiyoslash asosida tegishli qarorlar qabul qilishda foydalaniladi.


Biz tomondan mazkur ilmiy maqolada obyekt sifatida "Agro Finans Lizing" AJ tanlab olingan bo'lib, jamiyat mamlakat lizing bozori va investitsion faoliyatidagi muhim o'rni, qishloq xo'jaligi hamda real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi strategik ahamiyati bilan izohlanadi. "Agro Finans Lizing" AJ faoliyatida moliyaviy-investitsion strategiyalarni samarali shakllantirish kompaniyaning investitsion salohiyatini oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish hamda lizing xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi. Jamiyat tomonidan 2025-2030 yillarga mo'ljallangan investitsion loyihala ma'lumotlari asosida moliyaviy strategiyani ishlab chiqishdagi foydalaniladigan muhim instrumentlardan biri bo'lgan WACC (kapitalning o'rtacha tortilgan qiymatini)ni aniqlaymiz. Dastlab jamiyat tomonidan loyihani amalga oshirishga yo'naltiriladigan kapitalning qiymatini quyidagi ma'lumotlar orqali aniqlab olamiz (1-rasm).

Ushbu ko'rsatkichni aniqlashda WACC (weighted average cost of capital) tenglamasidan foydalanamiz:

$$WACC = \left(\frac{E}{V} * R_e\right) + \left(\frac{D}{V} * R_d * (1 - T)\right);$$

bu yerda: E – xususiy kapital; D – qarz kapitali; V – jami kapital ($E+D$); R_e – xususiy kapital bahosi; R_d – qarz kapital bahosi; T – foyda solig' i stavkasi.

Mazkur formuladan foydalangan holda WACCning qiymatini 14 foiz ekanligini bilib olishimiz mumkin. Shuning uchun, "Agro finans lizing" AJning mazkur investitsiya loyihasi moliyaviy jihatdan maqsadga muvofiqdir degan xulosaga kelsa bo'ladi. WACC (14%) va IRR (41%) o'rtasidagi katta farq loyiha bo'yicha kiritilgan investitsiya mablag'larining samarali foydalanilishini hamda yuqori daromad keltirishini ko'rsatmoqda.



1-rasm. "Agro finans lizing" AJ investitsion loyihasining kapital qiymati bilan bog'liq ko'rsatkichlari²

Moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda DCF usuli bo'yicha olingan natijalarni quyidagicha ifodalashimiz mumkin. Jamiyatning investitsiya loyiha ma'lumotlariga asosan loyihaga kiritilayotgan dastlabki investitsiya 10 mln. AQSH dollari., muddati esa 5 yil bo'lib quyidagicha pul oqimlariga ega: 1-yil: 4 mln., 2-yil: 5 mln., 3-yil: 6 mln., 4-yil: 5,5 mln. va 5-yil: 5 mln. AQSh dollari. Loyiha bo'yicha WACC darajasi 14%.

DCF (Discounted cash flow) usuli bo'yicha pul oqimlari bo'yicha qiymatlarni quyidagi formula yordamida aniqlashimiz mumkin

$$PV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+r)^t};$$

² Muallif tomonidan tuzildi.

bu yerda: PV – joriy qiymat; CF_t – t -yil uchun pul oqimi; r – diskont stavka; n – prognoz muddati.

Mazkur formulaga asoslangan holda diskontlangan pul oqimlarini qiymatini quyidagicha ifodalash mumkin (2-jadval). Jami diskontlangan FCF = 3508,7 + 3847,4 + 4049,3 + 3255,9 + 2597,4 = 17258,9

NPV qiymat esa: $NPV = 17258,9 - 10000,0 = 7258,9$ ming AQSh dollar.

“Agro finans lizing” AJ tomonidan 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan investitsiya loyihasi DCF usuli orqali baholaganda yuqori foydaga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Loyihani amalga oshirish jamiyatning umumiy rentabelligi va moliyaviy holatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2-jadval

Investitsion loyiha bo‘yicha diskontlangan pul oqimlari tahlili³

Yil	FCF (AQSH dollari)	Diskont omili $(1+0,14)^t$	Diskontlangan FCF
1	4 000 000	1,14	3 508 772
2	5 000 000	$1,14^2 = 1,2996$	3 847 482
3	6 000 000	$1,14^3 = 1,4815$	4 049 388
4	5 500 000	$1,14^4 = 1,689$	3 255 950
5	5 000 000	$1,14^5 = 1,925$	2 597 403


Zamonaviy portfel nazariyasi investitsiya qarorlarida risk va daromad o‘rtasidagi optimal muvozanatni topishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan portfel aktivlari bo‘yicha samarali chegara (Efficient Frontier)ni quyidagicha ifodalashimiz mumkin (2-rasm). Samarali chegara bu risk darajasi uchun eng yuqori kutilgan daromadni yoki kutilgan daromad uchun eng past riskni taklif qiluvchi portfellar to‘plami hisoblanadi.

Moliyaviy-investitsion strategiyani ishlab chiqish metodlari bu korxonalar rivojlanish strategiyasini yaratish bo‘yicha yondashuvlar, usullar va texnologiyalar majmuasidir. Ular ma‘lum bir ilmiy asos va ekonometrikaga tayanadi hamda strategik rejaning belgilangan parametrlarini ta‘minlashga xizmat qiladi. Strategiyani ishlab chiqish metodlari o‘zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi va eng sodda yondashuvlardan tortib, murakkab va ko‘p bosqichli usullargacha bo‘lgan barcha strategik yondashuvlar va instrumentlarni o‘z ichiga oladi. Bunday xilma-xillik, avvalo, metod mualliflari ko‘zlagan maqsadlarning turlicha bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Xalqaro amaliyot tajribalari bilan tanishar ekanmiz, istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda turlicha zamonaviy yondashuvlardan foydalanilishiga guvoh bo‘ldik. Dissertatsiya hajmiga qo‘yilgan talabdan kelib chiqqan holda milliy amaliyotda foydalanishda qulay bo‘lgan ayrim yondashuvlar xususida to‘xtalib o‘tamiz. Bunday yondashuvlardan biri kompaniyani strategik transformatsiyalashning dinamik tizimi – (Dynamic Enterprise Strategic Transformation System DESTS) hisoblanadi. DESTS

³ Muallif tomonidan tuzildi.

kompaniyaga moliyaviy-investitsion strategik yo‘nalishlarini tezkor, moslashuvchan va tizimli tarzda o‘zgartirish imkonini beruvchi transformatsion yondashuvdir.



2-rasm. “Agro finans lizing” AJning investitsion portfelining samarali chegara egri chizig‘i⁴

Bu tizim zamonaviy muhitda tez-tez o‘zgarib borayotgan tashqi va ichki omillarni hisobga olib, kompaniyaning moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. DESTSning quyidagi muhim xususiyatlari mavjud bo‘lib ularning barchasi ishlab chiqilgan strategiyalarning tashqi o‘zgaruvchan sharoitlarga tezkor moslashish imkonini beradi:

1. Dinamik muhitga moslashuvchanlik. DESTS muhitning tez o‘zgaruvchanligi - ya’ni bozor talablari, tashqi moliya bozori konyunkturasini o‘zgarishi, texnologik yangiliklar, mijozlar talablari yoki raqobatchilar “harakatlariga” javoban tezkor strategik javoblar ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur tizim, doimiy monitoring, tahlil va moliyaviy-iqtisodiy baholash orqali kompaniyaning mavjud strategiyasini moslashtirish va yangilash imkonini beradi.

2. Strategik rejalashtirish va ssenariylar tahlili. DESTS asosiy strategik maqsadlarni belgilash va ularning turli ssenariylarda (optimistik, realistik, pessimist) qanday ishlashini modellashtirish orqali yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan strategiyalarni tanlash imkonini beradi. Bu esa kompaniyalar uchun resurslarni optimal taqsimlash, risklarni oldindan baholash, muqobillar usullarni ko‘rib chiqish imkonini beradi.

3. Integratsiyalashgan axborot bazasi. DESTS kompaniyaning barcha bo‘limlari, investitsion jarayonlari, qimmatli qog‘ozlarga doir ma’lumotlar va moliyaviy resurslari bo‘yicha markazlashtirilgan axborot platformasiga ega. Mazkur integratsiyalashgan tizim shaffoflik va axborotga tezkor kirish, barcha darajadagi ijro organi rahbarlari uchun ma’lumotga asoslangan qaror qabul qilish va o‘zaro uzviy bog‘langan transformatsiya loyihalari yuritilishini ta’minlaydi.

4. O‘zgarishlarni boshqarish (Change Management). DESTS kompaniyada moliyaviy va investitsion o‘zgarishlarni muvofiqlashtirish, nazorat qilish va qamrab olish uchun aniq

⁴ Muallif tomonidan tuzildi.

metodologiyalarga ega bo'lib, mazkur jarayonda moliyaviy-investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga mas'ul xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan birga, kommunikatsiya strategiyasi hamda tashqi o'zgarishlarga ta'sirchanlikni kamaytirish choralarini ko'radi.

5. Moslashuvchanlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash tizimi. DESTS kichik bo'limlardan tortib yirik transmilliy kompaniyalargacha turli miqyosdagi kompaniyalarga moslasha oladi. Moslashuvchanlik qamrovi faoliyat ko'lami, sanoat sohasi (IT, moliya, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash va h.k.) va transformatsiya bosqichlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, DESTS innovatsion tashabbuslarni aniqlash, baholash va amaliyotga joriy qilishni strategik jarayonlar bilan uyg'unlashtiradi. Mazkur xususiyat orqali yangi mahsulot yoki xizmatlar bozoriga chiqish tezlashadi hamda ichki operatsiyalarni avtomatlashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalar tatbiq etiladi.

6. Real-vaqt monitoringi va tahlili. DESTS raqamli indikatorlar asosida kompaniyaning barcha darajadagi faoliyatini onlayn monitoring qilib boradi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq takliflar shakllantiriladi.

7. Strategik-aloqa va uyg'unlik. DESTS har bir moliyaviy departament va investitsion faoliyatni kompaniyaning umumiy strategik maqsadlari bilan muvofiqlashtiradi. Shuningdek, texnologik raqamli yechimlarni (bulutli tizimlar, AI, IoT, Big Data) joriy etish uchun aniq yo'l xaritalarini taqdim etish bilan birga sohani yanada rivojlantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Moliyaviy qarorlar qabul qilish mexanizmini takomillashtirish bugungi kunda iqtisodiy subyektlarning samarali faoliyat yuritishida muhim omil sifatida qaralmoqda. Raqobatbardosh bozor sharoitida korporativ tuzilmalar uchun resurslardan oqilona foydalanish, risk darajasini baholash, investitsion loyihalarni tanlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun samarali qaror qabul qilish tizimi zarur hisoblanadi. Mazkur mexanizmni takomillashtirish, bir tomondan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni, ikkinchi tomondan, analitik yondashuvlar va modellashtirish usullarining qo'llanilishini talab etadi. Shuningdek, moliyaviy qarorlar qabul qilishda inson omili, ya'ni moliyaviy menejerlarning tajribasi, ko'nikmalar va psixologik xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, moliyaviy qarorlarni qabul qilish mexanizmini takomillashtirish jarayoni kompleks yondashuvni, ya'ni iqtisodiy, texnologik va insoniy omillarni birgalikda hisobga olishni talab etadi.

"Agro finans lizing" aksiyadorlik jamiyati tomonidan shakllantirilgan investitsion portfel bo'yicha olingan natijalarga asoslanib quyidagilarni qayd etish mumkin. Portfel tarkibidagi aktivlar o'rtasidagi past korrelyatsiya (0,4-0,6) "Agro finans lizing" aksiyadorlik jamiyati uchun moliyaviy risk darajasini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Masalan, texnika lizingi va elektromobillar lizing loyihalari o'rtasidagi korrelyatsiya 0,4 bo'lgani uchun bir turdagi aktivga bog'liq bo'lmagan holda ikkinchisidan mustaqil foyda olish mumkin. Optimal portfel tavsiyasi bo'yicha aytadigan bo'lsak, fikrimizcha, riskni kamaytirish uchun kapitalning 40% ini qishloq xo'jalik texnikasi lizingiga, 30% ini issiqxona loyihalariga va 30% ini elektromobillar lizingi loyihalariga taqsimlash kerak. Bunday taqsimot portfelning umumiy risklilik darajasini kamaytiradi va daromadni barqaror saqlab turish imkonini beradi.

Korporativ tuzilmalarda moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda moliyaviy texnologiya keng qamrovli mexanizm bo'lib, korporativ moliya tizimining turli yo'nalishlarida namoyon bo'lishi mumkin. Shunga muvofiq uni bir nechta asosiy segmentlarga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi: xaridorlar va hamkorlar o'rtasidagi to'lovlar, kreditlash amaliyoti, investitsiya jarayonlari va moliyaviy aktivlarni boshqarish, sug'urta hamda boshqa moliyaviy xizmatlar. Ko'rinib turibdiki, fintex har bir yo'nalishda an'anaviy moliya xizmatlarini yangicha usulda taklif etadi. Masalan, to'lovlar segmentida raqamli to'lov ilovalari va tezkor tranzaksiyalar joriy etilib, ular orqali moliyaviy operatsiyalar tezlashmoqda; kreditlashda esa oraliq vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri onlayn kredit platformalari shakllanmoqda. Xuddi shunday, investitsiya va aktivlarni boshqarishda robo-maslahatchilar va algoritmik treyding an'anaviy maslahat xizmatlarini takrorlab, yanada arzon va tezkor yechimlarni taklif qilmoqda. Shu bilan birga, fintex kompaniyalari sug'urta sohasida ham innovatsion usullarni joriy etib, masofaviy va moslashuvchan sug'urta mahsulotlarini taklif qilinmoqda. Shunday qilib, moliyaviy texnologiyalar ko'lami moliya ekotizimidagi deyarli barcha bo'g'inlarni qamrab olib, ularning har birida yangilanish va samaradorlikni oshirish uchun xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-168-sonli qarori.
 2. López Salazar, Alejandra and Contreras Soto, Ricardo and Espinosa Mosqueda, Rafael The Impact of Financial Decisions and Strategy on Small Business Competitiveness, *Global Journal of Business Research*, Vol. 6, No. 2, pp. 93-103, 2012.
 3. Борисова О.В. Методы оценки риска снижения финансовой устойчивости организации//Аудит и финансовый анализ. – 2015 г. № 6 .- С.296-304.
 4. Бланк И.А. Управление финансовыми ресурсами. Учебник, Омега – Л. 2013. 768 стр.
 5. Хоминич И.П. Управление финансовыми рисками: учебник и практикум для вузов/ - 3-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2024. - 569 с.
 6. Saidnazarov F.A. Korxonaning moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish// Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. 2022 yil 1-son.
 7. Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari: i.f.d., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2018. – 14 b.
 8. Egamberdiyev Sh.S., Mo'minov Sh.Sh. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilishda moliyaviy strategiyaning o'rni va ahamiyati// Research and education, Volume 2, Issue 4, 2023 y. 89 b.
 9. Geetha, C., Mohidin, R., Chandran, V.V., and Chong, V. The Relationship between Inflation and Stock Market: Evidence from Malaysia, United States and China, *International Journal of Economics and Management Sciences*, 2011 №1(2), p.2
- Jeehan Almamy, John Aston, Leonard N. Ngwa, An evaluation of Altman's Z-score using cash flow ratio to predict corporate failure amid the recent financial crisis: Evidence from the UK, *Journal of Corporate Finance*, Volume 36, 2016, Pages 278-285.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

